


XI. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi. Toshkent viloyati bo'yicha 2021- yil yanvar-iyun oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3110,0 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,8 %ga oshganini ko'rish mumkin. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Olmaliq shahrida 5025,9 ming so'mni (viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 161,6 %), Zangiota tumanida 4435,1 ming so'mni (142,6 %), Bekobod shahrida 3273,5 ming so'mni (105,3 %), Nurafshon shahrida 3259,5 ming so'mni (104,8 %), Qibray tumanida 3182,5 ming so'mni (102,3 %) tashkil etdi. Aksincha, Bo'ka tumanida 1707,7 ming so'mni (54,9 %), Bekobod tumanida 1777,8 ming so'mni (57,2 %), Chinoz tumanida 1945,1 ming so'mni (62,5 %), Quyi Chirchiq tumanida 1999,8 ming so'mni (64,3 %), Oqqo'rg'on tumanida 2030,7 ming so'mni (65,3 %) tashkil etib, ushbu ko'rsatkichni pasayganligini ko'rish mumkin.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan o'zgarishi, %da
(2021- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)




**Toshkent viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'mda)


Hudud nomi	2020- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun	O'sish sur'ati, %da
Viloyat bo'yicha:	2708,4	3110,0	114,8
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	3104,1	3259,5	105,0
Olmaliq	4181,4	5025,9	120,2
Angren	2223,8	2516,0	113,1
Bekobod	3337,1	3273,5	98,1
Chirchiq	2521,6	2924,8	116,0
Ohangaron	2669,3	2759,0	103,4
Yangiyo'l	2023,5	2269,1	112,1
<i>tumanlar:</i>			
		0,0	
Oqqo'rg'on	1984,9	2030,7	102,3
Ohangaron	2300,5	2659,1	115,6
Bekobod	1702,0	1777,8	104,5
Bo'stonliq	2174,4	2298,1	105,7
Bo'ka	1720,6	1707,7	99,3
Quyichirchiq	2170,6	1999,8	92,1
Zangiota	2595,8	4435,1	170,9
Yuqorichirchiq	2230,3	2518,2	112,9
Qibray	2740,6	3182,5	116,1
Parkent	1801,3	2131,4	118,3
Piskent	2014,5	2112,2	104,9
O'rta Chirchiq	2182,2	2274,0	104,2
Chinoz	1892,4	1945,1	102,8
Yangiyo'l	2405,4	2473,2	102,8
Toshkent	2084,1	2398,9	115,1

Hududlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik biznes subyektlarisiz, ming so'm)



Hududlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, o'tgan yilgan nisbatan o'sish sur'atlari, %da
(2021-yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)




Ish haqi. 2021- yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda (2020- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm):



Ta'lim sohasida 1580 ta muassasada 81000 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 27,0 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 1 071 770,9 mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 19,7 %ni) tashkil etgan.

Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2205,3 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 111,9 %ga o'sdi.



Sanoat sohasida 139 ta korxonada 113992 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi - 38,0 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 2 684 735,7 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 49,4 %ni) tashkil etgan.

Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3925,3 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 112,4 %ga o'sdi.



Qurilish sohasida 18 ta korxonada 5686 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi - 2,0 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 137 956,3 mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 2,5 %ni) tashkil etgan.

Qurilish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4043,7 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 112,4 %ga o'sdi.



Ulgurji va chakana savdo sohasida 61 ta muassasada 5953 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,0 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 74 709,2 mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,4 %ni) tashkil etgan.

Ulgurji va chakana savdo sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2091,6 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 83,7 %ga kamaygan.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 111 ta muassasada 41928 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 14,0 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 632 102,4 mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 11,6 %ni) tashkil etgan.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2512,7 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 146,4 %ga o'sdi.



Tashish va saqlashda 17 ta korxonada 3845 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,0 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 41 168,2 mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 0,8 %ni) tashkil etgan.

Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1784,5 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 104,6 %ga o'sdi.



Moliyaviy va sug'urta faoliyatida 65 ta muassasada 3185 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,0 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 92 973,7 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,7 %ni) tashkil etgan.

Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4865,2 mln.so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 111,2 %ga o'sdi.

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 30- dekabrda "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi 4938-son Qaroriga muvofiq, joriy yilning 1- fevralidan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 747300 so'mni tashkil etadi.

Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi
Tel: (71) 202-86-78